

**MARDLAR QO'RIQLAYDI VATANNI!****Ashurov Ravshan Nosirovich**

Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra dotsenti

Boybutayev Jahongir Jumanazar o'g'li

Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig'i

harbiy, falsafa fanlar doktori(PhD)

Annotatsiya: ushbu maqolada yurtimizda O'zbekiston Respublikasi Quroli Kuchlariga qaratilgan e'tibor, Vatan himoyachilari va ularning jasorati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Qurollি Kuchlar, mudofaa tizimi, Vatan himoyachilari, yurt sarhadlari, jasorat, tinchlik, mustaqillik, ajdodlar, Konstitutsiya, o'zbek o'g'lonlari...

Vatan ostonadan, inson yashab nafas olib turgan go'shagan, insonning kindik qoni to'kilgan xonadon tuprog'idan boshlanadi. Shu bois, inson ilk bor nafas olib, ulg'ayib voyaga yetgan ona zaminga mehr-muhabbat va sadoqatda bo'lishi, uning har bir hovuch muqaddas tuprog'ini ko'ziga to'tiyodek surtishi, unga nisbatan bir umr farzandlik hissi bilan yashashi uning uchun ham farz, ham qarzdir. Vatanimiz tuprog'idagi har bir qarich yer muqaddas hisoblanadi. Shuning uchun ajdodlarimiz yurt tuprog'ini ko'zlariga to'tiyo etganlar, qayerga borsa ham vatan yodi bilan nafas olganlar. Yurtimiz insonlari vatanimizdan tashqarida baxt-saodatga erisha olmaydilar. Har bir insonning o'z Vatani uning uchun dunyodagi eng go'zal va muqaddas makondir. Vatanga mehr-muhabati bo'limgan insonni ota-onasiga mehri bor desalar bunga ishonib bo'lmaydi. Ona vatanimizga sadoqatli bo'lish, ajdodlar merosiga qiziqish, milliy ma'naviyatdan bahramandlik, o'ziga ishonch, kelajak oldida ma'sullik tuyg'ularini tarbiyalaydi. Shu bois, mustaqillik yillarida harbiy sohada amalga oshirilayotgan harbiy islohatlar jarayonida qisqa muddat ichida O'zbekistonda mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligi sarhadlarimiz daxlsizligini ishonchli himoya qilishga har jihatdan qodir bo'lgan zamonaviy, eng yangi qurol-yaroqlar va harbiy texnika bilan ta'minlangan mutlaqo yangi milliy armiyamiz vujudga keldi. Uning zamirida xalqimizning ming yillar davomida shakillangan qadimiy an'ana va qadriyatları, buyuk ajdodlarimiz Jaloliddin



Manguberdi, Amir Temurning vatanga bo‘lgan muhabbatи va yurtga bo‘lgan sadoqatida mujassamdir. Albatta, biz o‘z milliy armiyamiz bilan har qancha faxrlansak arziyi.

Vatan himoyasi va Vatan himoyachilari haqida gap borar ekan, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida 1991-yil 6-sentyabr kuni Mudofaa ishlari vazirligi tashkil etilgani o‘ta murakkab va tahlikali yillarda hech kimga tobe va qaram bo‘lmay yashash huquqini himoya qilish borasida dadil qadam bo‘lganini alohida ta’kidlash maqsadga muvofiqdir. Shu o‘rinda 1992-yil 14-yanvar kuni davlatimiz rahbarining mamlakatimiz hududidagi barcha Qurolli Kuchlarni O‘zbekiston tasarrufiga o‘tkazish to‘g‘risidagi qarori qabul qilingani va o‘sha kundan boshlab milliy armiyamizga asos solinganini faxr bilan qayd etish joiz. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 29-dekabrdagi “Vatan himoyachilari kuni belgilash to‘g‘risida”gi qonunga binoan, 14-yanvar - Vatan himoyachilari kuni, deb e’lon qilindi.

Albatta, yurtimizda barcha talablarga javob beradigan, tezkor va harakatchan, tashkiliy jihatdan mukammal, zamonaviy qurol-yarog‘ va texnikaga ega bo‘lgan milliy armiyani barpo etish o‘z-o‘zidan bo‘lgani yo‘q. Mustaqillik yillarida xalqimiz erishgan eng katta boylik, hech shubhasiz, tinch-totuv hayotimizdir. Ana shu osoyishta va barqaror hayotning mustahkam qalqoni-milliy armiyamizning barpo etilishi xalqimizning mustaqillikni qo‘lga kiritish tarixi bilan uzviy bog‘liq. O‘tgan davr ichida O‘zbekistonda yurtboshimizning tashabbusi hamda bevosita boshchiligidida milliy armiya tashkil etildi, davlatimizning Mudofaa Doktrinasi ishlab chiqildi va milliy armiyaning faqatgina mudofaa maqsadlariga xizmat qilishi belgilab qo‘yildi.

Prezidentimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovich ta’biri bilan aytganda, “...bugungi kunda O‘zbekiston amalda o‘zining zamonaviy, ixcham va harakatchan, yaxshi qurollangan, mamlakatimiz barqarorligi va xavfsizligini, sarhadlarimiz daxlsizligini, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ishonchli himoya qilishga qodir bo‘lgan milliy armiyasiga ega”.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida Qurolli Kuchlarning huquqiy mavqeい uzil-kesil va eng yuksak darajada mustahkamlangan. Uning 152-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat



suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi”, deb belgilanishi davlat Qurolli Kuchlarining asl maqsad va vazifalarini dunyo hamjamiyati oldida yana bir bor namoyon etadi.

Vatan himoyasi barcha fuqaro, eng avvalo o‘zini shu yurt farzandi deb bilgan har bir yigit uchun yuksak iftixor hisoblanadi. Shu bois yurt himoyasi tarixning turli davrlarida barcha davlat va millatlarning mard, jasur o‘g‘lonlari uchun muqaddas vazifa sanalgan. Konstitutsiya asosida Vatan himoyasi mamlakatning har bir fuqarosi uchun muqaddas va sharaflı burch ekani belgilanib, 64-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan. Ushbu modda O‘zbekiston Respublikasi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonun bilan mustahkamlandi. Mazkur Qonunda O‘zbekiston Respublikasini tashqaridan bo‘ladigan qurolli tajovuzdan himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy burchi deb ko‘rsatilgan. Ushbu konstitutsiyaviy burchni ado etish O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonuni bilan mustahkamlandi.

Vatan himoyachilari qalbida yagona Vatanimiz – O‘zbekiston bilan faxrlanish tuyg‘ulari jo‘sish uradi.

O‘g‘lim, bul hikmatni qilgin boshga toj: Hech kimsa bo‘lmasin nomardga muhtoj.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga Quruqlikdagi qo‘sishinlar, Havo Hujumidan mudofaa qo‘sishinlari va Harbiy Havo Kuchlari, Maxsus qo‘sishinlar, chegara va ichki qo‘sishinlar, Milliy xavfsizlik, favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa vazirliklar va muassasalarga qarashli harbiy bo‘limlar kiradi.

Shu bois bosh qomusimizda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari mamlakatimizning davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, xalqimizning tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuzilishi, O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun yetarli darajada qurolli kuchlariga ega bo‘lishi qat’iy belgilab qo‘yilgan. Buning zamirida



esa, O'zbekistonda tug'ilib, ulg'ayib, voyaga yetayotgan yoshlarimizning har biri o'z hayotini, kelajagini mana shu buyuk va muqaddas, betakror Vatanimiz ravnaqi, yurtimiz tinchligi va xalqimiz farovonligi bilan uyg'un ko'radi. Osuda, xotirjam va saodatli hayotimizning qadriga etib, uni yanada ziyoda qilishni kimningdir buyrug'i deb emas, balki ko'nglidagi eng toza va pokiza niyat, doimiy intilajak yorug' manzil deb biladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari mamlakat istiqlolini va hududiy yaxlitligini, xalqimizning osuda hayoti va mustaqillikni mustahkamlash yo'lidagi bунyodkorlik mehnatini himoya qilishda, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda g'oyat muhim o'rin tutadi. Qurolli Kuchlarimiz doimo mamlakatimiz ozodligi va mustaqilligining, keng miqyosdagi demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish, muqaddas zaminimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashning ishonchli kafolati bo'lib kelmoqda va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. O'z hayotini dunyodagi eng muhim va oljanob vazifa – Vatan himoyasi degan sharafli kasbga bag'ishlagan insonlar esa davlatimiz va jamiyatimizda hamisha yuksak hurmat va ehtiromga munosib bo'lib qolajak.

Xulosa qilib aytganda, har bir qadamida qat'iyat va matonat aks etayotgan mard va jasur yurt himoyachilari bor ekan, yurtimiz osmoni doimo musaffo bo'lib, tinch va osuda hayot kechirayotgan xalqimiz faravonligi abadiy bo'ladi. Vatan himoyachilari yurtimizning ming yillik tarixi davomida ulug'lanib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Karimov. 19-tom. – T., 2011-yil.
- 2.Gulxan. – 2008-yil, yanvar. №1
- 3.Internet saytlari: Kitob.uz, ZiyoNet.uz, Lex.uz